

Natijada, atrof-muhitga chiqariladigan zaharli chiqindilar miqdori minimal bo'ladi. Majburiy salt ishlash rejimi va dvigatel bilan tormozlash avtomobil harakati umumiy vaqtining 20 foizini tashkil qiladi. Bu rejimlarda karburatorli dvigatelning kiritish quvurlarida katta siyraklanish hosil bo'ladi, yonish jarayoni yomonlashadi, natijada sikllarning 90 foizida umuman yonish bo'lmaydi va dvigatel noto'rg'i ishlaydi, ishlatilgan gazlarning zaharliligi bir necha marta ortib ketadi. Bundan tashqari, katta siyraklanish natijasida karter moyining yonish kamerasiga ko'plab o'tishi kuzatiladi. Bu esa o'z navbatida qurum hosil bo'lishiga va dvigatelning tutun chiqarib ishlashiga olib keladi [2].

Yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklarni yo'qotishning eng qulay usullarida biri dvigatelning kiritish quvurini atmosfera bilan maxsus siyraklanishni cheklagich deb ataluvchi klapan orqali bog'lash va ekonomayzer orqali yonilg'i berishni to'xtatishdir. Bunday cheklagich siyraklanishning kamayishiga qaramasdan klapaning keskin ochilishini va ochiq holatda bo'lishini ta'minlashi kerak [3]. Markaziy salt ishlash ekonomayzerining elektron boshqarish tizimi dvigatel majburiy salt ishlaganda yonilg'ini uzatilishini to'xtatish uchun xizmat qiladi. Bu tizim joriy qilinishi yonilg'ini 2–3 foizga tejash va chiqindi gazlardagi zaharli moddalar miqdorini 15–30 foizga kamaytirish imkoniyatini beradi.

Avtomobillarni shahar sharoitida kuzatish natijalariga ko'ra, ular tekis harakat qilishi uchun 15–25 foiz, harakat tezlanishini olishi uchun 30–45 foiz, harakat sekinlashishi va salt yurish uchun esa 30–40 foiz vaqtini sarflaydi. Shahar sharoitida avtobus dvigatellari uchun salt ishlash rejimi umumiy ish vaqtining 30% ni tashkil qiladi.

Mutaxassislarning fikricha, atmosferaga avtomobil transporti chiqindilari uglerod oksidi uchun 90 foizgacha va azot oksidi uchun 70 foizni tashkil qiladi. Birlik maydoniga eng ko'p avtomobillar to'g'ri keladigan ba'zi yirik shaharlarda atmosferadagi zararli moddalar miqdori inson salomatligi uchun xavfli konsentratsiyaga yetgan. Biroq, muammoning jiddiyligini kamaytirishning boshqa usullari ham mavjud. Agar svetoforda to'xtash vaqtida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi (ACS) dvigatelni 12 daqiqaga o'chirsa, yonilg'i sarfi 10-15 foizga, zararli moddalar chiqindilari esa 10-20 foizga kamayishi mumkin. Bundan tashqari, shovqin effekti kamayadi berilib kelmoqda.

Xulosa. Shu kabi ekologik muammolarni o'rganish uchun talabalar amaliy hamda laboratoriya mashg'ulotlarini ko'proq dars yuklamasini oshirish va laboratoriya jihozlarini tashkil etish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sultanov, A.I., Sultanova, D.U. (2023). Bo'lajak o'qituvchilarda shakllantiriladigan kasbiy kompetentsiyalar va ularning turlari. Educational Research in Universal Sciences, 2(15), 480–482.
2. Sultanova, D.U. (2024). Tabiiy gazdan foydalanish va ichki yonuv dvigatellarida chiqindi gazlarning zaxarliligini kamaytirish. Educational Research in Universal Sciences, 3(2), 535-537.
3. Sultanov, A.I., Sultanova, D.U. (2023). Yonilg'i ta'minot tizimidagi nosozliklar va injektorning ishdan chiqish sabablari. Educational Research in Universal Sciences, 2(18), 302–304.

OLIV TA'LIM MUASSASASI TALABALARINING EKOLOGIK MUAMMOLARGA BO'LGAN MUNOSABATINI OSHIRISH

Uzaqova Odinoxon Moxirjon qizi, Jumaboyeva Mahdiya Dilshodbek qizi
uzakovaodinakhon@gmail.com, totyoxinjojimatova@gmail.com
Central Asian Medical University

Ekologiyalashtirish – bugungi kunda butun dunyo bo'yicha hal etilishi lozim bo'lgan dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Shubhasiz, dunyo aholisining salomatligi, ularning har qaysi sohada amalaga oshirishi mumkin bo'lgan islohatlari, biznes, sanoat, qishloq xo'jaligi,

tibbiyot va qolaversa, ta'lim sohasida ham bir qator o'zgartirishlar amalga oshirilib, tabiatni muhofaza qilish bo'yicha konsepsiyalar joriy etilmoqda. Bu esa o'z navbatida odamlarni ogohlikka chaqirish, o'sib kelayotgan yosh avlodning ekologik savodxonligini oshirish, ekologik ong va ekologik madaniyatni rivojlantirish uchun to'la-to'kis zamin yaratmoqda. Ta'lim muassasalarida ekologik targ'ibot tizimi qoniqarli tarzda yo'lga qo'yilib, ona tabiatni asrab avaylash, tabiiy resuslardan oqilona foydalanishga oid bir qancha seminarlar o'tkazilmoqda. Shunday ekan odamlarning ekologik ongi va bilim saviyasini shakllantirishda biz ularning yoshlik chog'laridan boshlashimiz va tabiatga muhabbatini oshirish uchun ilk targ'ibot harakatlarimizni:

-maktabgacha ta'lim tizimida; keyinchalik esa:

-umumiy o'rta ta'lim tizimida ;

-o'rta maxsus va professional ta'lim tizimida ;

-oliy ta'lim tizimida ekologik ta'limni takomillashtirishimiz lozim. [1] Bu esa har bir jamiyat a'zosining tushunishi va amal qilishi lozim bo'lgan vazifalardan biridir. Bundan tashqari, tibbiyot yo'nalishida tahsil olib kelayotgan talabalarga tegishli o'quv fan dasturlari doirasida ekologiya va atrof -muhit muhofazasiga oid mavzular qo'shimcha ravishda chuqurroq o'qitilishi kerak. Aynan ekologik muammolar (global isish, iqlimning o'zgarishi, havoning va suvning ifloslanishi) odamlar orasida jiddiy kasalliklarning paydo bo'lishi va avj olishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa bo'lg'usi tibbiyot hodimlardan yuksak ong, bilim, madaniyat, keyinchalik targ'ibot ishlarini talab qiladi. Shuning uchun professor o'qituvchilar va o'quvchilar tomonidan ko'plab ma'ruzalar va seminarlar tashkil etilishi kerak.

Misol tariqasida, bir tibbiyot talabasi o'quv yili davomida mustaqil ish sifatida o'z sohasidan kelib chiqqan holda, ekologiya buzilishining qay darajada salbiy ta'sirlari bor va ularni inson hayoti uchun ahamiyatiga bag'ishlangan mavzuda o'z jamoadoshlariga seminar tashkillashi: video lavhalar, tarqatma materaillar tayyorlab, yer yuzi qanchalik xavf ostida ekanligi va ularni bartaraf etishda nimalarga e'tibor berishimiz kerak ekanligi haqida tushuncha berib, ko'ngilli sifatida ishlariga jalb qilishi kerak. Masalan: darsdan bo'sh vaqtlarda atrof – muhitni tozalab, mevali va manzarali daraxtlarini ekish kabilar shular jumlasidandir. Hozirgi paytda muhim ekologik muammolardan biri havo ifloslanishidan millionlab yevropaliklar aziyat chekmoqda. Bu esa ko'plab o'pka va yurak kasalliklariga hamda erta o'limga sabab bo'layotgani hech kimga sir emas, albatta. Yana pollutantlar (ifloslantiruvchi moddalar) okean, daryo va ko'llarga ta'siri qolaversa, kimyoviy moddalarning qishloq xo'jaligi va sanoatda foydalanilishi bevosita oziq – ovqat zanjiri orqali kirib, aholing tanasida to'planishi. [2] Ayniqsa, iqlimning o'zgarishi (issiqlik to'lqinlari, ultrabinafsha nurlaring yuqori ta'siri, ob-havo hodisalari) o'rmon yong'inlaring kuchayishi va yuqumli kasalliklarning ko'payishiga olib kelishi mumkin. [3] Fikrimizcha, ta'lim muassasalarida o'qitiladigan sohalarni yanada ekologiyalashtirish uchun ko'proq tabiiy yorug'liklardan foydalanish (energiya sarfini kamaytirish uchun), ko'proq kitoblarni chop ettirish (elektron kitoblardan foydalanishni kamaytirish maqsadida sababi yuqori darajada nurlanish og'ir o'sma kasalliklariga olib keladi), foydalanib bo'lingan yaroqsiz qog'oz, o'quv qurollarini qayta ishlash korxonlariga topshirish. Dars jarayonlaridan tashqarida suv sarfini kamaytirish va havoni ifloslanishini oldini olish maqsadida ko'proq daraxtlarni ekilishini joriy etish lozimdir. Shuni unutmasligimiz kerakki, bizning bugungi va ertangi kun hayotimiz osoyishta va farovon bo'lishi o'z qo'limizda!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida Vazirlar Mahkamasining 2019 – yil qarori
2. European Environment Agency
3. Q.X.Muftaydinov, H.M.Qodirov, E.Yu.Yulchiyev EKOLOGIYA. Toshkent 2020 yil